

## BOLALARDA GIPERAKTIVLIKNING O'ZLASHTIRISHGA TA'SIRI

**Ibroximova Ma'muraxon Alijon qizi**

O'zbekiston Milliy universiteti

Psixologiya (f.t.b.) 2-kurs magistranti

[alijons167@gmail.com](mailto:alijons167@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada, kichik maktab yoshi davri misolida, bolalarda giperaktivlikning o'zlashtirishga ta'siri masalasi hamda bu borada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishi natijalari tahlil etilgan.

**Tayanch so'zlar va tushunchalar:** diqqat yetishmasligi giperaktivligi sindromi (DEGS), giperaktivlik, impulsivlik, xulq-atvor buzilishi, o'zlashtirish ko'rsatkichi.

## ВЛИЯНИЕ ГИПЕРАКТИВНОСТИ НА ОБУЧЕНИЕ РЕБЕНКА

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется влияние гиперактивности на обучаемость детей на примере младшего школьного возраста, а также результаты исследований в этой области.

**Ключевые слова:** синдром дефицита внимания с гиперактивностью (СДВГ), гиперактивность, импульсивность, поведенческие расстройства, мастерство.

## EFFECTS OF HYPERACTIVITY ON CHILD LEARNING

### ABSTRACT

This article analyzes the impact of hyperactivity on children's learning on the example of the early school age, as well as the results of research in this area.

**Keywords:** Attention Deficit Hyperactivity Disorder (ADHD), hyperactivity, impulsivity, behavioral disorders, mastery.

### KIRISH

Har bir bola individualdir. Uni ijodiy va intelektual salohiyatini, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantira bilish kerak. Bugungi kun zamonaviy ilm-fani yangidan-yangi, g'ayrioddiy ta'lim-tarbiya usullarini ilgari surmayapti balki, bolalarmi tushunishni, ularning ichki dunyosini kashf qilishni, ilgari nomalum bo'lgan ajoyib fazilatlarini qadrlashni va ularning yangi qirralarini rag'batlantirishni maslaxat bermoqda. Ushbu jarayonni qay darajada muvaffaqiyatli amalga oshirishimiz,

bolalarning kelajakdagi faoliyatlarida, ijtimoiylashuvida, ta’lim jarayonini va o‘zining emotsiyonal holati hamda xulq-atvorini o‘z iroda kuchi bilan boshqara oladigan mustaqil shaxs bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada “Kichik mакtab yoshidagi bolalarda giperaktivlikning o‘zlashtirishga ta’siri” nomli ilmiy tadqiqot ishi natijalari keltirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** kichik mакtab yoshidagi bolalarda giperaktivlikning mакtab ta’limini o‘zlashtirishga ta’siri masalasini tadqiq etish va uni salbiy oqibatlarini yengillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

**Obyekti:** diqqat yetishmasligi va giperaktiv sindromli bolalar; Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 150-umumta’lim maktabi.

## ASOSIY QISM

Jahon va mahalliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, rivojlanishida nuqsonli bolalar soni ko‘p va doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Bolalik davridagi surunkali xulq-atvor buzilishining eng keng tarqalgan shakli bu giperaktivlik sindromidir. Giperaktiv tashxisi qo‘yilgan bolalarda emotsiyonal-irodaviy boshqaruv ko‘nikmalarining yaxshi shakllanmaganligi ta’lim-tarbiya tizimida, guruxdagi va oiladagi shaxslararo munosabatlarda, o‘quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarishda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu guruxga doir o‘quvchilardagi urushqoqlik, agressivlik, qaysarlik, qaxri qattiqlik, sabrsizlik, qo‘polliklarning yuqori darajasi va xulq-atvorini ongli boshqara olmaslik oqibatida tengdoshlari va oila a’zolari o‘rtasida tez-tez nizolar kelib chiqadi. Shuning uchun ular boshqalarga nisbatan ko‘proq tanbeh eshitadilar va jazolanadilar. Buning natijasida esa ularda o‘zlariga bo‘lgan ishonch, o‘zlariga beradigan baho pasayib boradi, ular muvaffaqiyat hissini kamdan-kam his etadilar. Bunday bolalarni o‘qituvchi va ota-onalar tomonidan tushunmaslik, jazolash maktab dezadaptatsiyasiga, delikvent xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi[1].

Bolaga diqqat yetishmasligi sindromi tashxisini qo‘yishda bir qator qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin. DEGS bor deb taxmin etilgan bolalarni psixologik tadqiq etish bir nechta yo‘nalishlarni qamrab olishi zarur:

- diqqat va xotiraning rivojlanganlik darajasi;
- bola emotsiyonal sohasining o‘ziga xosligi;
- oilaviy muhitning bola tomonidan idrok etilishini o‘rganish;
- bolaning uyda va maktabdagi (bog‘chada) xulq-atvorini o‘ziga xosligi[1].

Giperaktivlik muammosiga taaluqli turli nazariy ma’lumotlarning taxliliga asoslanib, kichik mакtab yoshidagi bolalarda giperaktivlikning o‘lashtirishga ta’siri masalasini o‘rganishda metodologik vositalar sifatida,


- kuzatuv; test-sinov metodi; qiyosiy taxlil;
- DSM-IV tasnifi bo‘yicha DEGS diagnostikasi mezonlari (Amerika Psixiatriya Assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan 1994);

- diqqat diagnostikasida Burdon korrektur sinovi
- məktəb o'quvchilarining umumiyligi: yarim va bir yillik o'zlashtirish ko'rsatkichlari singari metodikalar tanlab olindi. Tadqiqot ishini bajarishda tarixiylik, mantiqiylik, muvofiqlik tamoyillaridan hamda manbaalar tahlili, analiz, sintez, tizimli yondashuv, umumlashtirish kabi metodlardan foydalaniłgan.

Ilmiy tadqiqot ishining obyekti sifatida umumiyligi 92 nafar sinaluvchilar ishtirok etib jumladan, umumta'lim maktabining 1-2-3-sinf o'quvchilari olindi. O'quvchilarning jinsi va yosh ko'rsatkichlarini xisobga olgan xolda, tadqiqotimizni amalga oshirishda – *jinsi* (o'gil – 48 nafar, qiz – 44 nafar), *Yosh guruhi* (7, 8, 9 yosh), hamda giperaktivlik tashxisi qo'yilishi kutilayotgan – *nazorat guruhi* va *asosiy guruhi* larga ajratdik.

Quyida sinaluvchilarning yosh guruhlariga ko'ra tahlili keltirilgan:

Tadqiqotimiz davomida 1- yosh guruxida 28 nafar (30,4%) 1-sinf o'quvchilari ya'ni 7 yoshlilar, 2- yosh guruxida 36 nafar (39,1%) 2-sinf o'quvchilaridan iborat 8 yoshlilar va 3-yosh guruxida 28 nafar (30,4%) 9 yoshlilardan iborat 3-sinf o'quvchilari, jami 92 nafar sinaluvchilar ishtirok etdi (1-diagramma).



1-diagramma


**1-diag.** Yosh guruhlari taqsimotining foizli ko'rsatkichlari. 1 – 7 yoshlilar, 2 – 8 yoshlilar, 3 – 9 yoshlilar.

DEGSli bolalarni aniqlab olish uchun bir qancha xorij va mahalliy tadqiqotlarda [1,2,3,4] keng qo'llanilgan samarali metodlardan biri bo'lgan **Standartlashgan kuzatuv metodidan** foydalandik. Ushbu metod Amerika psixiatrlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, DEGS dagi yaqqol namoyon bo'luvchi belgilarni o'zida aks ettirib, samarali hisoblanadi. Metodika o'zida 14 ta mezonni aks ettiradi (1-ilova). Ushbu belgilarni 3 ta guruhga ajratish mumkin:


- Giperaktivlik belgilari (1,2,3,9,10);
- Diqqatning yetishmasligi va chalg'uvchanlik belgilari (3,6,7,8,12,13);
- Impulsivlik belgilari (4,5,11,14).

Agar bolada ushbu belgilarning yetti-sakkiztasi 6 oy davomida kuzatilsa, unga DEGS tashxisini qo'yish mumkin [1].

Tadqiqot ishimizda o'tkazilgan ushbu metodikaning birlamchi statistik natijalariga tayanib, sinaluvchilarning guruhlari shakllantirildi. Standartlashgan kuzatuv bosqichi hamda sinaluvchilarning tibbiy anketalariga asoslangan holda, giperaktivlik tashxisi qo'yilgan sinaluvchilar nazorat guruhi olindi. Tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlillash imkoniga erishish maqsadida sinaluvchilar ikki guruxga ajratilib, sog'lom bolalar asosiy guruhgaga olindi. psixodiagnostika jarayonida aniqlangan giperaktiv bolalar 16 nafarni tashkil qilib, umumiy sinaluvchilar soniga nisbatan 17,4 foizni, asosiy guruh sinaluvchilari esa 76 nafar bo'lib, 82,6 foizni tashkil qildi. Birlamchi statistik taxlilga ko'ra, asosiy va nazorat gurux sinaluvchilari soni jihatidan normal taqsimlanish qonuniga mos kelmasligi, tadqiqot obyekti sifatida umumta'lim maktabi o'quvchilari (amalda sog'lom bolalar) olinganligi bilan tavsiflanadi (2-diagramma). Bundan tashqari, gender xususiyatlari ham inobatga olindi. Bu esa o'z navbatida giperaktivlik sindromining o'g'il bolalar va qiz bolalarda uchrash farqlarini taxlil qilish imkoniyatiga erishishni ta'minlaydi. Shunday qilib nazorat guruhi sinaluvchilari gender xususiyatlari ko'ra 1/15 nisbatda ekanligi ya'ni giperaktivlik - 15 nafar o'g'il bolalarda, 1 nafar qiz bola sinaluvchilarda aniqlanganligi ushbu sindromni qiz bolalarga nisbatan o'g'il bolalarda ko'p uchraydi degan xulosaga kelishimiz mumkinligini va adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga zid emasligini ko'rsatadi (3-diagramma):



2-diagramma




3-diagramma

**2-diag.** Standartlashgan kuzatuv m.si natijalariga ko'ra guruhlari qatsimoti: 1-asosiy guruh (sog'lom bolalar), 2-nazorat guruhi (giperaktiv bolalar)

**3-diag.** Giperaktivlikning jins bo'yicha taqsimlanishi 1-o'g'il bolalar, 2-qiz bolalar, a) asosiy guruh, b) nazorat guruhi. Foiz ko'rsatkichlari.

Tadqiqot ishida P.A.Rudik tomonidan o'zgartirilgan Burdon Korrektur sinov testidan ham foydalanilib, metodika sinaluvchilardan guruh tarzida o'tkazildi va ishni olib borilish jarayonida o'quvchilarning faol diqqatining xususiyatlari, uning ko'chish xususiyatlarini o'rganish bilan bir qatorda, diqqatning o'zgaruvchanligi xarakterining


rivojlanishi kuzatildi (4-diagramma). Metodikada diqqatning to‘planishi (K) ni va diqqatning ko‘chishi (C) ni sifatiy baholash uchun qabul qilingan mezon boyicha taxlil natijalariga ko‘ra, umumiy foizda 18% “yomon”, 68% “o‘rtacha yaxshi” va 14% “juda yaxshi” natijalar qayd etilgan bo‘lsa, bundan 12% “yomon”, 5% “o‘rtacha yaxshi” natijalari nazorat guruhiga tegishli. Umumiy 18 % foiz yomon natijalardan 12% i nazorat guruhidagi giperaktiv bolalar xisobiga qayd etilganligi va ushbu sinaluvchilarning - diqqati sust, tez chalg‘uvchan (beqaror), diqqatning umumiy kuchsizligi va ish qobiliyatining sustligi fonida namoyon bo‘ldi desak bo‘ladi. Taxliliy natijalarga ko‘ra umumiy 14% sinaluvchilarda, juda yaxshi natija qayd etilib, topshiriqni tez bajarish va xatolaming yo‘qligi o‘quvchida ixtiyoriy diqqat barqarorligidan dalolat beradi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Sinaluvchilarning 68% ida diqqatning to‘planganligi, diqqatning tebranishi, ko‘rish analizatorlari uzoq vaqt ishlaganda bir xil ko‘rvu qo‘zg‘aluvchilariga nisbatan sinaluvchilarning charchashi, topshiriqni bajarish tezligi singari bir qancha diqqat xuxusiyatlarida o‘rtacha yaxshi natija bilan normal holatda, meyorlarga mos kelishini ko‘rishimiz mumkin. Metodikadan olingan umumiy xulosalarga ko‘ra, giperaktiv bolalar uchun diqqat tanqisligi xos deyishimiz mumkin.



4-diagramma.

**4-diag.** Giperaktiv bolalar diqqat xususiyatlarining ko`rsatkichlari. Asosiy (sog‘lom) va nazorat (giperaktiv) guruhidagi natijalar tafovuti. 1-diqqat to‘planganligi; 2-diqqatning ko‘chishi shkalalari; a) yomon (0-20%), b)o‘rtacha yaxshi (21-80%), d) yaxshi (81-100%) ko`rsatkichlari.

Tadqiqot ishida kichik muktab yoshidagi bolalarda giperaktivlikning o‘zlashtirishga ta’siri masalasini asosiy (sog‘lom bolalar) va nazorat (giperaktiv bolalar) guruhlari orasidagi tafovutlarni taxlil qilish bilan davom ettirar ekanmiz, Kolmogorov-Smirnov mezoniga asosan tanlangan metodikalarimiz shkalalari nomarametrik mezonlarga mos kelganligi tufayli, natijalar taxlilini Mann Uitni mezonida davom ettirdik.



5-diagramma

**5-diag.** Giperaktivlikning o'zlashtirishga ta'siri. Asosiy (sog'lom) va nazorat (giperaktiv) guruhidagi natijalar tafovuti. a) o'zlashtirish I chorak, b) o'zlashtirish II chorak baholari hamda Standartlashgan kuzatuv metodikasining natijalari: d) giperaktivlik belgilari, e) diqqat yetishmasligi va chalg'uvchanlik belgilari, g) impulsivlik belgilari.

Ilmiy tadqiqot ishimizda foydalanilgan standartlashgan kuzatuv metodikasidan olingan natijalarga ko'ra nazorat guruhida uchchala shkala bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar olindi. Asosiy guruhda esa buning aksi kuzatildi. I shkala – giperaktivlik belgilari nazorat guruhida 81,81 ko'rsatkichga ega bo'lsa, asosiy guruhda ushbu ko'rsatkich 39,07 ni ko'rsatdi, II shkala – diqqat yetishmasligi va chalg'uvchanlik bo'yicha nazorat guruhida 81,13 ,asosiy guruhda esa 39,21 qayd etildi, III shkala – impulsivlik nazorat guruhi sinaluvchilarida o'rtaca ko'rsatkich 81,63 bo'lsa, asosiy guruhda esa 39,11 o'rtacha ko'rsatkich aniqlandi (5-diagramma).

Mann Uitni mezoni bo'yicha natijalarni qayta ishlanishida **Giperaktivlik belgilari** shkalasi ( $U=43,0$ ;  $p<0,001$ ); **diqqat yetishmasligi va chalg'uvchanlik belgilari** ( $U=54,0$ ;  $p<0,001$ ) hamda **Impulsivlik belgilari** shkalalari ( $U=46,0$ ;  $p<0,001$ ) bo'yicha ham asosiy guruh va nazorat guruhi sinaluvchilar o'rtasida ishonchli tafovutlar kuzatildi. Giperaktivlik sindromi tashxisini qo'yishga asos bo'luvchi ushbu metodikaning har bir shkalalari bo'yicha guruhlari o'rtasida ishonchli farqlarning kuzatilganligini, asosiy va nazorat guruhlariiga to'g'ri ajratilganligi bilan izohlasak bo'ladi.

Tadqiqotimizning asosiy vazifasi bo'lgan giperaktivlikning o'zlashtirishga ta'sirini aniqlash bo'yicha olingan natijalar yuzasidan shuni ko'rishimiz mumkinki, sinaluvchilarning **o'zlashtirish I chorak** ( $U=78,0$ ;  $p<0,001$ ) hamda **o'zlashtirish II**

**chorak** ( $U=109$ ;  $p<0,001$ ) ko‘rsatkichlarida ham asosiy va nazorat guruhlari o‘rtasida ishonchli tafovutlar kuzatildi. Bu o‘z navbatida giperaktiv bolalarning diqqat darajasi va sifati (chalg‘uvchanlik)ning pastligi, xulq-atvorining o‘ziga xosligi (xulqiy buzilishlar), impulsivlik, ijtimoiy ko‘nikmalardagi qiyinchiliklar fonida namoyon bo‘ladigan giperaktivlik sindromi bolalarning maktab ta’limini to‘liq o‘zlashtirishlariga bevosita salbiy ta’siri borligidan dalolat beradi deyishimiz mumkin (5-diagramma).

Tadqiqot ishining so‘nggi bosqichi sifatida psixologik diagnostika vositalari hisoblangan metod va metodikalarning o‘zaro bog‘liqligi, mosligi va qay darajada tadqiqot ishi uchun to‘g‘ri tanlanganligini tadqiq etish maqsadida, korrelyatsion taxlil amalga oshirildi.

### Spirman mezoni bo‘yicha korrelyatsiya koeffitsenti

	Diqqatning ko`chishi Burdon Korrektur sinov	o`zlashtirish I chorak bo`yicha	o`zlashtirish II chorak bo`yicha	Giperaktivlik belgilari Standartlash tilirgan kuzatuv	Diqqat yetishmasligi va chalg‘uvchanlik belgilari Standartlashtilirgan kuzatuv	Impulsivlik belgilari Standartlashtilirgan kuzatuv
Diqqatning ko`chishi Burdon Korrektur sinov	1,000	,597(**)	,563(**)	,028	-,854(**)	-,393(**)
o`zlashtirish I chorak bo`yicha		1,000	,949(**)	-,293(**)	-,626(**)	-,787(**)
o`zlashtirish II chorak bo`yicha			1,000	-,258(*)	-,595(**)	-,805(**)
Giperaktivlik belgilari Standartlashtilirgan kuzatuv				1,000	,069	,361(**)
Diqqat yetishmasligi va chalg‘uvchanlik belgilari Standartlashtilirgan kuzatuv					1,000	,424(**)
Impulsivlik belgilari Standartlashtilirgan kuzatuv						1,000

\*\* Correlation is significant at the 0.01 level (2-tailed).

\* Correlation is significant at the 0.05 level (2-tailed).

**1-jadval.** Giperaktivlikning o`zlashtirishga ta’siri yuzasidan o`tkazilgan metodikalarning korelyatsiya koefissenti. (giperaktiv bolalar va asosiy guruh sinaluvchilarining o`zlashtirish ko`rsatkichlaridagi tafovut 99,9% ishonchlilik bilan aniqlandi: \* -  $p<0,05$ ; \*\* -  $p<0,01$ ; \*\*\* -  $p<0,001$ ).

Tadqiqot ishining korrelyatsion taxlil ma'lumotlariga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, nazorat guruhida giperaktivlik belgilarini o'zida namoyon qilgan sinaluvchilarimizning natijalari impulsivlik shkalasida ham 99% ishonch darajasi bilan moslikni ko'rsatdi  $r_s=0,361$   $9p<0,01$ . Bu o'z navbatida giperaktiv tashxisi qo'yilgan nazorat guruhi sinaluvchilarida impulsivlik belgilari ham namoyon bo'lganligidan dalolat beradi deyishimiz mumkin. Biroq giperaktivlik belgilari shkalasi bilan diqqat yetishmasligi va chalg'uvchanlik shkalalari orasidagi moslikning ishonch darajasida chiqmaganligini, bizning nazorat guruhi sinaluvchilarimiz, diqqat yetishmasligi-giperaktivlik-impulsivlik singari ushbu kasalliklarning kombinatsiyasi kesimida emas, giperaktivlik (impulsivlik, guruhiy buzilishlar) ustunligidagi og'ishlarni o'zida namoyon qilgan sinaluvchilardan iboratligi bilan izohlashimiz mumkin. Ushbu shkala bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlariga nazar tashlasak, natija taxmin qilinganimizdek, giperaktivlik belgilari yuqori bo'lgan sinaluvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari pastligi I chorakda 99% ishonch darajasi bilan, II chorakda esa 95% ishonch darajasi bilan moslikni ko'rsatdi.

Yuqoridagi natijalar taxliliga ko'ra Spirmen korrelyatsiya koeffitsenti, sinaluvchilarning natijalari o'zaro bog'liqlikda rivojlanib borishi mumkinligini ko'rsatdi. Ya'ni, shkalalar orasidagi ijobiy korrelyatsion munosabatlar bir xususiyatning boshqalari bilan uyg'un rivojlanishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar tavsifiga ko'ra, barcha ma'lumotlar o'zaro bir-birini to'ldirishi va o'zaro bog'liqlikda aks etganligini kuzatish mumkin.

## XULOSA

Giperaktivlik muammosiga taaluqli turli nazariy ma'lumotlarning taxlili hamda tadqiqotimizning psixodiagnostik taxlil natijalari ma'lumotlariga asoslanib, xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, giperaktiv bolalarda ijtimoiy xulq-atvor meyorlarini bajarish; o'qish, o'quv materiallarini o'zlashtirishda muammolar borligi; diqqat xususiyatlarining sust rivojlanganligi parishonlikka, oson ixtiyorsiz chalg'ishga ya'ni materialni yuzaki o'zlashtirishga olib kelishi; o'zin motivlarining o'qish motivlaridan ustunligi; muammoli bolalarni o'qitishning noadekvat sharoitlari ushbu sindromli bolalarda xulq-atvor buzilishlari, havotirlanish, maktab dezadaptatsiyasini keltirib chiqarishi ehtimoli yuqoriligi sabablaridan, psixologik-pedagogik tuzatish ishlarining individual sxemasini tuzish va o'z navbatida uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Bunda asosan psixologik-pedagogik tuzatish ishlarining maqsadi: giperaktiv bolalarda xatti-harakatlarning buzilishi va o'rganishdagi qiyinchiliklarni kamaytirishdir. Giperaktivlik sindromi psixokorreksiyasini shifokor, psixolog, o'qituvchi va ota-onalar hamkorligida jamoaviy tarkibda kompleks yondashuv asosida olib borish samarali natijaga erishishning muhim omili hisoblanadi. Buning uchun avvalo, bolaning ijtimoiylashuv jarayonlaridagi qiyinchiliklarini yengillatish uchun oiladagi, maktabdagi muhitini o'zgartirish hamda xulq-atvordagi buzilish belgilarini

tuzatish; o‘qish va o‘quv dasturini o‘zlashtirishda hamda yuqori aqliy funksiyalarni rivojlanishidan oraqada qolishni bartaraf etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish kerak. Zero bolalar kelajagining fundamental bosqichiga to‘sqinlik qiluvchi xulq-atvordagi muammolarni bartaraf etish dolzarbdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarova N.A., Rasulova Z.A., Yaqubova G.A. “Bolalarda diqqat yetishmasligi va gipperaktivlik sindromi psixodiagnostikasi” Ta’lim psixologiyasi – 2016.
2. Белоусова Е.Д., Пиканорова М.Ю. Синдром дефицита внимания/гиперактивности // Российский вестник перинатологии и педиатрии. - 2000.
3. Брязгунов И.П., Кучма В.Р. Синдром дефицита внимания с гиперактивностью у детей - М.: Институт психотерапии, 1994
4. Заваденко П.П. Как понять ребенка: дети с гиперактивностью и дефицитом внимания. Пздание 2. -М.: «Школа-Пресс 1», 2001.